

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHAXS OTLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Babajanova Iqbol Salomaddinovna

Navoiy davlat universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

iqbolsalomadinnovna@gmail.com

+998 99 664 56 86

Annotatsiya: *til inson hayotidagi o'rni va roli, muloqotning asosiy vositasi ekanligi, til madaniyatlararo munosabatlarni o'rnatuvchi asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlarining yasalishi, tilshunoslik tarixida so'z yasalishi, ingliz va o'zbek tilidagi o'xshashliklar, farqli jihatlar borasida tahliliy ma'lumot berilgan. Tilshunoslikda shaxs otlarining ahamiyati va uning lingvistik xususiyati ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shaxs otlarining o'zbek tilshunosligida alohida soha sifatida ajralib chiqishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari borasida tahliliy umumlashtiruvchi fikr va mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birgalikda ingliz tilshunosligida shaxs otlarining lingvistik xususiyatlari va uning tarkibi bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *til, tilshunoslik, inson, ot, so'z, muloqot, vosita, lingvistik, morfema, fonetik.*

I.KIRISH

Til insonlarning muloqot vositasi sifatida aynan shu jamiyatning rivojlanishi va doimiy aloqada bo'lishini asosiy maqsad sifatida uning taraqqiyot darajasini oshirishga xizmat qiladi. Til insonlarning muloqot kaliti, ilm o'rganish, dunyoni bilish, kashf etish vositasidir. Uning yordamida jamiyatning muayyan madaniyati dunyo bilan izchil tarzda aloqada bo'ladi. Til natijasida madaniyatlararo munosabatlar va hamkorliklar yuzaga keladi. Bu holat jamiyat taraqqiyot darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Insoniyat rivojida muhim omil til va madaniyatning o'zaro va bog'liqligida o'z ifodasini topadi. Bu esa lingvistik chog'ishtirma tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirishga imkoniyat beradi.

Bugun yurtimizda hukumronlik qilayotgan demokratik o'zgarishlar, hurfiylik, mafkuraviy erkinlik tamoyillarining barcha sohalarda jumladan tilshunoslik sohasida ham samarali ta'sir ko'rsatib, fanimizda turli hil yondashuv va qarashlarning shakllanishi, rivojlanishi va bir-birini to'ldirib qiyosiy jihatdan tadqiq etish imkoni bermoqda. Tilshunoslik turli xil tasnifiy-talqiniy metodlar, o'ziga xos metodologik tamoyillar bilan ish ko'radigan har bir ilmiy yo'nalishda o'zining alohida tomonlari, xususiyatlarini yorqinroq namoyon qilganligi bois gap qurilishida muhim o'rin egallaydigan shaxs otlari va uning talqini maslasi ham fanimizda bugun keng tarqalgan, ta'lim tizimida ommalashgan talqinlar doirasida – lingvistik, morfologik, semantik va pragmatik yo'nalishlarida alohida ko'rib o'tish lozim. ushbu bobda lingvistik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Har qanday ilmiy tadqiqot ma'lum bir metodologiya va metodlarga atayanadi.

II. ASOSIY QISM

Har bir til o'zining ichki tuzilishi, fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va semantik jihatlari bilan ajralib turadi. Ushbu jihatlari "lingvistik xususiyatlar" deb atalib, tilshunoslikda muhim o'ringa ega. Lingvistik xususiyatlar tahlili tilning struktura va funksiyasini, uning amaliy nutqdagi ifoda imkoniyatlarini chuqur o'rganishga imkon beradi. Lingvistik tipologiya: yunonchadan olingan bo'lib, (typos-nusxa, andoza, shakl, iz va logos- so'z ta'limot)-tillar o'rtasida genetik munosabatlardan qat'iy nazar, ularning tuzilmaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. Lingvistik jihatdan tadqiq etishda bir tilning ichki tuzilishi bo'yicha qiyoslash orqali uning genetik umumiylikni ochib berish mumkin. Lingvistik jihatdan tahlil qilishda kvantativ metodning ahamiyati katta hisoblanadi. Ushbu metod dunyo tillarini muayyan belgi asosida qiyoslash, ularni ana shu belgi asosida ma'lum bir guruhga birlashtirish uchun qo'llaniladigan metod hisoblanadi⁹¹. Ushbu metod qiyoslanuvchi va zidlanuvchi til tipologiyasining metodlaridan hisoblanadi. Til doimiy o'sishda va rivojlanishda bo'lgan dinamik hodisa hisoblanadi. Ana shu davr oralig'ida tilda o'sish, ajralish kabi holatlar yuz beradi.

Lingvistik xususiyat — bu til birliklarining o'ziga xos tuzilma, ma'no, funktsiya va ishlatilish kontekstiga xos bo'lgan belgilarining yig'indisidir. Har bir til birligi o'zining semantik yuklamasi, sintaktik roli yoki fonetik ohangi bilan ajralib turadi. Shuning uchun tilshunoslikda har bir daraja doirasida lingvistik xususiyatlarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Lingvistik xususiyatlar quyidagicha tasniflanadi:

1. **Fonetik xususiyatlar** – tovushlar tizimi, urg'u, intonatsiya, fonemalar o'zaro munosabati va fonologik qonuniyatlar.
2. **Morfologik xususiyatlar** – so'zlarning tuzilishi, grammatik shakllanishi, affiksial tizimlar.
3. **Sintaktik xususiyatlar** – so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ularning tartib va munosabat qonuniyatlari.
4. **Leksik-semantik xususiyatlar** – so'zlarning lug'aviy va kontekstual ma'nosi, sinonimiya, antonimiya, polisemiya.
5. **Pragmatik xususiyatlar** – nutqning vazifaviy yo'nalganligi, kontekstual ahamiyati, muloqotdagi psixologik va ijtimoiy jihatlar.

Har bir lingvistik daraja o'zining ichki qonuniyatlariga ega bo'lib, u orqali tilning murakkab, ammo tizimli shakllanishini ko'rish mumkin. Masalan, fonetik xususiyatlar orqali tovush tizimi va ohang muhitidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi, morfologik xususiyatlar esa so'z yasash jarayonini tushunishga yordam beradi.

O'zbek tilshunosligining rivojlanishida Mahmud Qoshg'ariyning roli juda katta. Ushbu olim dastlabki o'zbek tilshunosi, adabiyotshunosi va elshunosi hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ari uch jildidan iborat "Devonu lug'oti-turk" (Turkiy tillar devoni) asarini yozadi. Ushbu devon lug'at bo'libgina qolmay balki XI asr tili va grammatikasidir. Shu bilan birgalikda olim turkiy tillarni bir-biriga qiyoslab o'rgangan. U dastlabki qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridandir. U turkiy tillarning leksikasi,

⁹¹ Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –T.: Akademnashr 2010. B-65

morfologiyasi va fonetikasini bir-biriga qiyoslab o'rgangan. Mahmud Qoshg'ariy o'zining asarida so'zlarni uch turkumga ismlar ya'ni otlar, fe'llar va yordamchi so'zlarga ajratgan. U yordamchi so'zlarni harflar deb atagan⁹². Mahmud Qoshg'ariy tilshunoslikda muhim masalalardan bo'lgan tilshunoslikning kelib chiqishi, so'z turkumlari va qay biri oldin paydo bo'lgan, ikki tillilik masalasi, chet tillarning ta'siri kabi nazariy masalalarga ham to'xtalib o'tgan.

O'zbek tilshunosligi va so'z turkumlari, ot so'z turkumi hamda shaxs otlarining yasallishiga doir tadqiqot ishlaridan XI asrda yashab ijod etgan Az-Zamahshariy "Muqaddimat ul-adab" "Adabiyotga kirish" nomli asarida o'zbek tili grammatikasiga doir qimmatli qarashlar qoldirgan. Uning ushbu asari besh qismdan iborat bo'lib, ismlar, fe'llar, bog'lovchilar, ismlarning turlanishi, fe'llarning tuslanishi kabi bo'limlardan iborat. Ushbu asarda ot so'z turkumi va uning turlanishi haqida ma'lumotlar berilgan⁹³.

O'zbek tilshunosligining yetuk olimlaridan E.Fozilov va M.Ziyeyevalar mog'ullar davrida yozilgan "At-tuhfa" asarini arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, ushbu asardagi grammatik qoidalarni tahlil qilgan. Arab tilida ot so'z turkumi ism deb atalib ushbu kitob arab tilida yozilganligi sababli, arab tili grammatikasi va turkey tillar grammatikasini solishtirishi natijasida solishtirma grammatikaning ilk namunasi paydo bo'ladi. Unda so'z turkumlarini ot, fe'l va yordamchi so'z turkumlariga ajratadi. Olmosh, sifat, son va ravish otning tarkibida o'rganiladi. Ushbu manbaning bizning dissertatsiyamiz uchun tadqiqot manbasi sifatidagi qiymati otlarning son, egalik, kelishik, kategoriyalari haqida ma'lumot berilganligi bilan qimmatlidir⁹⁴. "At-tuhfa" asarida ot va uning Grammatik xususiyatlari batafsil berilgan.

O'zbek tilida so'z turkumlari orasida otlar asosiy leksik-morfologik guruh sifatida alohida o'rin egallaydi. Otlar orqali mavjudotlar, narsalar, hodisalar va tushunchalar nomlanadi. Shu jihatdan otlar tildagi nomlash funksiyasining asosiy vositasi hisoblanadi. Otlarning semantik guruhlari ichida **shaxs otlari** tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular ijtimoiy-madaniy, tarixiy va shaxsiy identifikatsiyaga bevosita bog'liqdir.

Shaxs otlari — bu aniq bir shaxs, inson yoki u bilan bog'liq ijtimoiy rol, lavozim, martaba, ism-sharif yoki familiyani bildiruvchi otlardir. Ular kishilarni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi va o'ziga xos nomlash vazifasini bajaradi. Shaxs otlari lingvistik jihatdan antroponimlar tizimi bilan chambarchas bog'liq.

Shaxs otlari faqatgina individual identifikatsiya uchun emas, balki madaniy-ma'naviy meros, tarix, urf-odatlar va mentalitet haqida ham ma'lumot beradi. Antroponimika sohasi shaxs otlarini o'rganish bilan shug'ullanadi va bu yo'nalish tilshunoslik, tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy aloqada bo'ladi⁹⁵. Shaxs otlari har bir tilda juda qadimiy qatlamga mansub bo'lib, ularning kelib chiqishi tilning eng dastlabki taraqqiyot bosqichlariga borib taqaladi. Bu so'zlar ko'pincha boshqa so'zlardan emas, balki qadimiy ildizlardan, affiksalar qismlardan shakllangan.

⁹² Gadoyeva D.B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Navoiy 2013. B-10.

⁹³ Qarang: O'sha manba. B-15.

⁹⁴ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. —T.: O'zbekiston 2002. B-61.

⁹⁵ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1965. — 28 б.

Qadimgi turkiy tillarda **“ben”**, **“min”**, **“men”** shakllarida uchragan. **“Men”** shakli qadimgi turkiy tildan o‘zbek tiliga o‘zgarishsiz deyarli o‘tgan. Bu shaklning ildizi juda qadimiy, balki protoural-altay tillariga borib taqaladi. Qadimgi turkiy tillarda **“sen”**, **“sän”**, **“sänik”** shakllarida mavjud. Qadimgi turkiyda **“ol”**, **“ul”**, **“u”** shakllarida qo‘llangan. **Biz** – ba’zi tilshunoslarga ko‘ra, "men + iz (ko‘plik yoki egalik qo‘shimchasi)" shaklidan paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin deya ta’riflashadi. **Siz** – aslida hurmat shakli, ko‘plik formasidan kelib chiqqan. Tarixan yagona kishiga murojaatda ham ishlatilgan. **Ular** – **“u”** olmoshiga ko‘plik qo‘shimchasi **“-lar”** qo‘shilishi orqali yuzaga kelgan. Shu tariqa shaxs bildiruvchi otlar ham shakllangan. Shaxs otlarining kelib chiqishi, ayniqsa olmoshlar, tilning eng qadimgi bosqichlariga borib taqaladi. Ular ko‘pincha boshqa so‘zlardan yasalgan emas, balki dastlabki nutq unsurlaridan bo‘lib, asosiy kommunikativ ehtiyoj – o‘zini, boshqani va uchinchi shaxsni ifodalash zaruriyatidan kelib chiqqan. Shaxs bildiruvchi otlar esa tilga tashqi (arab, fors, semit) ta’sirlar bilan boyigan.

Otlar tilning asosiy leksik va grammatik birliklaridan biri sifatida tilshunoslikda eng ko‘p o‘rganilgan sohalaridan biridir. Ular shaxslar, narsalar, joylar, hodisalar va tushunchalarning nomini ifodalaydi. Otlar ma’no jihatdan ham, grammatik funktsiya jihatdan ham til tizimining markaziy yadrosini tashkil etadi (Lyons, 1977).

Shaxs otlari esa otlar doirasidagi maxsus kichik toifani tashkil etib, aniq bir individ yoki shaxsga oid bo‘lgan nomlarni bildiradi. Ingliz tilshunosligida shaxs otlari **“proper nouns”** yoki **“personal names”** deb yuritiladi va ular doimiy aniq ma’lumotni ifodalaydi: masalan, *John, Elizabeth* Shaxs otlari grammatik kategoriya sifatida definiteness (aniqlik) va referentiality (yo‘naltirilganlik) xususiyatlariga ega bo‘ladi (Anderson, 2007)⁹⁶.

Ingliz tilida shaxs otlarining paydo bo‘lishi va shakllanishi qadimgi german va kelt tillariga borib taqaladi. O‘rta asrlarda diniy va qirollik sivilizatsiyalari orqali ko‘plab bibliyaviy va qirollik ismlari (James, Mary, Henry) keng tarqalgan. XIX asr oxirlarida esa anglo-sakson va lotin manbalaridan kirib kelgan ismlar dominant bo‘la boshladi (Room, 1992).

Shaxs otlari tilshunoslikda **“antropoonymlar”** degan keng toifadagi nomlash birliklariga kiradi. Ular individni boshqa individlardan farqlash uchun ishlatiladigan individual va identifikatsiyalovchi belgilar hisoblanadi. Dastlabki odamlar jamiyatida insonlar ko‘pincha jismoniy yoki ijtimoiy belgilar asosida nomlangan — masalan, qabila boshlig‘i, yoshi kattaligi, jasorati yoki tashqi qiyofasiga qarab. Vaqt o‘tishi bilan bu belgilar doimiy ismga aylangan (Algeo, 1992)⁹⁷.

Qadimgi jamiyatlarda shaxs otlari funksional xarakterga ega bo‘lib, ular insonning ijtimoiy maqomini, kasbini, etnik kelib chiqishini bildirgan. Masalan, qadimgi germanlarda **“Wulfgar”** — **“bo‘ri jangchisi”**, yoki qadimgi o‘zbeklarda **“To‘raqul”** — **“bekning o‘g‘li”** ma’nolarini bergan. Bu esa shaxs otlarining semantik boyligi va ularning ijtimoiy ko‘rsatkich sifatidagi rolini ko‘rsatadi.

⁹⁶ Anderson, J. M. (2007). The grammar of names. Oxford University Press.

⁹⁷ Algeo, J. (1992). Onomastics: The study of names. In The Cambridge History of the English Language (Vol. 5). Cambridge University Press.

Ingliz tilidagi shaxs otlarining tarixi qadimgi ingliz tilidan (Old English, milodiy V–XI asrlar) boshlanadi. O'sha davrda ismlar asosan germantik ildizli bo'lib, ikki qismlik struktura ega bo'lgan: *Beornwulf* (beorn – jangchi + wulf – bo'ri).

Norman bosqinidan (1066-yil) so'ng ingliz ismlar tizimiga ko'plab fransuzcha va lotinchalashgan ismlar kirib keldi: *William, Henry, Richard*. Bu davrda ismlar ko'pincha feodal ierarxiya asosida berilgan.

Renessans davrida esa ko'plab klassik (yunon, lotin) ismlar keng tarqaldi: *Alexander, Sophia, Catherine*. Bu davr shaxs otlarining madaniy markerga aylanishini boshlab berdi (Wilson, 1998)⁹⁸.

XIX–XX asrlarda protestant an'anasi, pop madaniyati va milliy identitet asosida yangi ismlar tizimi rivojlandi. Hozirda ingliz tilida shaxs otlari shaxsiy, familiya va unvon (title) shaklida qat'iy strukturalashtirilgan.

III. Natijalar

Shaxs otlari tilshunoslikda ko'p qirrali tushuncha sifatida ko'riladi. Ularning o'ziga xos semantik, grammatik va pragmatik funksiyalari mavjud. Quyidagi nazariy yondashuvlar asosiy hisoblanadi:

Onomastik yondashuv: Bu yondashuvda shaxs otlari maxsus onomastik birlik sifatida o'rganiladi. Ular klassik semantikaga to'g'ri kelmaydi, ya'ni ularning asosiy maqsadi — referensiya (aniqlik bilan kimnidir ko'rsatish), ma'no emas. Bu fikrni Mill (1843) ilk bor ilgari surgan: "ism – bu shunchaki belgidir".

Kognitiv yondashuv: Kognitiv tilshunoslik vakillari shaxs otlarini identitet va inson xotirasidagi kontseptlar bilan bog'lashadi. Masalan, *Emma* degan ism nafaqat insonni bildiradi, balki muayyan madaniyat, ruhiy obraz, xotiralar bilan birga ifodalanadi (Lakoff, 1987). Kognitiv tilshunoslikda shaxs otlari inson ongi va xotirasidagi mental model sifatida qaraladi. Ism — bu shunchaki belgining belgisi emas, balki u bilan bog'liq bilimlar, hissiyotlar, tajribalar majmuasini ifodalaydi (Lakoff, 1987)⁹⁹.

Pragmatik yondashuv: Bu yondashuvda shaxs otlari kommunikativ jarayondagi roli orqali o'rganiladi. Masalan, ism aytish va tanishtirishdagi nutq aktlari, ijtimoiy muomala me'yorlari, hurmat yoki qulaylik ifodasi sifatida ismlardan foydalanish (Brown & Levinson, 1987).

Sotsiolingvistik yondashuv: Shaxs otlari jamiyatdagi sinfiy, milliy, jinsiy yoki diniy identitetlarni ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Bu yondashuvda ism tanlash – shaxsiy emas, balki ijtimoiy-madaniy tanlov sifatida tahlil qilinadi (Bourdieu, 1991)¹⁰⁰. Sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan, shaxs otlari insonning milliy, ijtimoiy, jinsiy, diniy va madaniy identitetini aks ettiradi (Bourdieu, 1991)¹⁰¹.

Muhammad — diniy identitet

Olivia — ingliz madaniyatiga oid zamonaviy ismlar

Jaloliddin — tarixiy-milliy ong

⁹⁸ Wilson, S. (1998). *The Means of Naming: A Social History*. UCL Press.

⁹⁹ Lakoff, G. (1987). *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind*. University of Chicago Press.

¹⁰⁰ Bourdieu, P. (1991). *Language and symbolic power*. Harvard University Press.

¹⁰¹ Qarang: o'sha manba

Shaxs otlari tilshunoslikda turli fanlararo yondashuvlar bilan tadqiq etilib, ularning vazifasi, tuzilishi, semantikasi va madaniy kontekstdagi o'zni xilma-xil paradigmalarda ko'rib chiqiladi. Quyida shaxs otlariga oid yondashuvlarning asosiy turlari va ularning o'zbek hamda ingliz tillarida qo'llanishi tahlil qilinadi.

Bu yondashuv XX asr boshlarida strukturaviy tilshunoslik asosida shakllangan bo'lib, shaxs otlari fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilinadi. Shaxs otlari odatda:

- Kapital harf bilan yozilishi (ingliz tilida),
 - Artikl va aniqlovchilarning ishlatilmasligi,
 - Singular shaklda qo'llanishi,
 - Sintaktik jihatdan ega yoki to'ldiruvchi vazifasini bajarishi,
- kabi belgilar bilan tavsiflanadi (Quirk et al., 1985).

Semantik yondashuvda shaxs otlari boshqa otlarga qaraganda aniqlik (definiteness) va referensiallik jihatidan farqlanadi. Shaxs otlari konkret individni bildiradi va deiksis (yo'naltirilganlik) xususiyatiga ega. Masalan, *John* yoki *Elizabet* — bu umumiy emas, balki ma'lum bir shaxsni anglatadi.

Bu yondashuv bo'yicha shaxs otlari odatda izohlovchi semantik ma'noga ega emas, ular nomlash funksiyasini bajaradi (Mill, 1843). Ammo ba'zi hollarda shaxs otlari ichki semantik qatlamni saqlaydi.

Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan, shaxs otlari ijtimoiy muloqot, hurmat, psixologik yaqinlik va nutq aktida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ism bilan murojaat qilish yoki ismni ishlatmaslik — bu har doim nutq egasining niyatini va sotsiolingvistik mavqeini bildiradi (Brown & Levinson, 1987)¹⁰².

Masalan, ingliz tilida "Mr. Smith" degan ifoda rasmiy, masofa saqlovchi, hurmatga asoslangan murojaat bo'lsa, "John" oddiy, yaqin yoki do'stona muloqot uchun ishlatiladi.

Shaxs otlari universalikka ega bo'lgan tilshunoslik kategoriyasidir. Ingliz tilida shaxs otlarining maqomi va funksiyasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bu murakkab va baxsli mavzu hisoblanadi. Shaxsiy otlar madaniyatlararo farqlanuvchi mezonlarga asoslangan holda tizimlashtirilgan bo'lib, ular tegishli jamiyatni talqin qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular real hayotda mavjud bo'lgan yagona ob'ektlarga ishora qiluvchi referensial funksiyani bajaruvchi lingvistik birliklardir. Ko'rsatkich so'zlar (deiktiklar)ga o'xshash tarzda, ular to'g'ridan-to'g'ri kontekstga bog'liq emas.

Ingliz tilida shaxs otlari proper nouns deb yuritiladi. bu odamlar, tashkilotlar yoki joylarning aniq nomlarini bildiruvchi so'zlardir. Ular doimo bosh harf bilan yoziladi. Har bir insonning ism-familiyasi shaxs otlari hisoblanadi. Undan tashqari kompaniya, tashkilot, savdo belgilarining nomlari, hayvonlarga shahar mamlakatlar, tarixiy obidalar, avtomobil modellari, oy, hafta kunlari, bayramlar nomlari, din, muqaddas kitoblarga berilgan otlar ham shaxs otlari hisoblanadi.

¹⁰² Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.

Ingliz tilida shaxs otlarining birinchi lingvistik xususiyati - yozuvdagi bosh harf bo'lib, bu oddiy ot (common noun) bilan shaxsiy ot (proper noun)ni farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: Rosemary (ism) va rosemary (ziravor).

Ba'zi shaxs otlar so'z yasash jarayonlariga ham bo'ysunadi. Masalan, hypocorism (erkalatib aytish shakllari) – bu to'liq ismning qisqartma yoki erkalash shakllari bo'lib, turli usullar bilan hosil qilinadi. Grammatik nuqtai nazardan, shaxsiy otlar turli muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, ularning ichki tuzilishi: ular bir so'zli yoki ko'p so'zli bo'lishi mumkin, ba'zida artiklni ham o'z ichiga oladi (London, John Smith, The Red Sea). Shaxs otlar oldidan ba'zida unvonlar qo'llanadi (Mr. Smith, Aunt Mary), bu unvonlarning grammatik maqomi ba'zida bahsli bo'ladi.

IV.XULOSA

Xulosa qilib aytganda, shaxs otlarning semantikasi haqida fikr yuritsak — bu masala John Mill davridan boshlab ko'p muhokama qilingan. Shaxsiy otlar diaxronik (vaqt o'tishi bilan) asosli bo'lib, ularning kelib chiqishi ko'pincha aniq: masalan, ba'zi familiyalar kasblardan yoki ajdodning ismidan kelib chiqqan (son of Richard - Richardson, miller - Miller). Biroq sinxronik (hozirgi zamonda) jihatdan ular ko'pincha ma'nosizdek tuyuladi: "ko'pchilik tilshunoslar fikriga ko'ra, shaxsiy otlar ma'noga ega emas".

Ingliz va o'zbek tillarida shaxs otlari (antroponimlar) tilning muhim nomlash birliklaridan biri sifatida har ikki tilda ham ijtimoiy, madaniy va tarixiy ma'lumot tashuvchisi hisoblanadi. Ular semantik, morfologik va funksional xususiyatlari jihatidan qator umumiylik va farqlarga ega. Ingliz tilidagi shaxs otlari ko'pincha qadimgi german, lotin, yunon, fransuz manbalariga tayansa, o'zbek tilidagi antroponimlar turkiy, islomiy (arab, fors-tojik) va milliy-madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Morfologik jihatdan, o'zbek tilida shaxs otlari ko'pincha ergashuvchi qo'shimchalar orqali shakllanib, ot turkumidagi boshqa so'zlar kabi egalik, ko'plik va kelishik qo'shimchalarini oladi. Ingliz tilida esa shaxs otlari grammatik o'zgarishga kam uchraydi, asosan egalik ('s) va ko'plik (-s) shakllarida ifodalanadi.

Fonetik xususiyatlarda ham farqlar mavjud bo'lib, o'zbek tilida talaffuz yozuvga yaqin bo'lsa, ingliz tilida fonetik yozuvdan keskin farqlanishi mumkin. Ijtimoiy-lingvistik nuqtai nazardan, har ikki til jamiyatida shaxs otlari ijtimoiy maqom, madaniyat, diniy e'tiqod va tarixiy jarayonlarning aksidir.

Ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs otlari o'ziga xos lingvistik tizimga ega bo'lib, ularning qiyosiy tadqiqi har ikki tilning madaniy-lisoniy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda antroponimik sistemalarning universal va milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. –T.: Akademnashr 2010. B-65
2. Gadoyeva D.B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Navoiy 2013. B-10.
3. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T.: O'zbekiston 2002. B-61.

4. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 б.
5. Anderson, J. M. (2007). The grammar of names. Oxford University Press.
6. Algeo, J. (1992). Onomastics: The study of names. In The Cambridge History of the English Language (Vol. 5). Cambridge University Press.
7. Wilson, S. (1998). The Means of Naming: A Social History. UCL Press.
8. Lakoff, G. (1987). Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. University of Chicago Press.
9. Bourdieu, P. (1991). Language and symbolic power. Harvard University Press.
10. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.
11. Madvaliyev A. “Onamastika” “Sharq” 2018. 3-7 bet
12. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. С. 96.